
Tibbiyot xodimlari kuni nishonlandi

Ma'lumki, mamlakatimizda har yili noyabr oyining ikkinchi yakshanbasi tibbiyot xodimlari kuni sifatida keng nishonlanadi. Shu munosabat bilan bugun Qo'shtepa tumanida 300 nafardan ziyod soha xodimlariga bayram tadbiri tashkil qilindi.

Unda sohada ko'p yillar samarali mehnat qilgan faxriylar va tibbiyot xodimlari ishtirok etdi. Bayram tilaklari, samimiy dil so'zlari bir piyola choy ustida davom etdi.

Sektor rahbarlari ishtirokida tadbir ishtirokchilariga tuman hokimligi hamda tibbiyot birlashmasi kasaba uyushma qo'mitasining esdalik sovg'alari topshirildi.

Tuman Madaniyat bo'limi san'atkorlari tomonidan tayyorlangan badiiy dastur barcha ishtirokchilarni kayfiyatini ko'tardi.















2024-11-09 20:31:34